

ZULFIYAXONIM HAYOT VA IJOD YO'LIDAGI O'ZIGA XOSLIK.

Raxmonova Gulzoda Ikromovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi

2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14737064>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining mashhur shoirasi Zulfiya hayoti, ijodi va uning adabiyotdagi faoliyati chuqur tahlil qilinib, adabiyotdagi o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Zulfiya she'riyati orqali insonparvarlik, muhabbat va sadoqat kabi ezgu tushunchalar aniq va ta'sirli tarzda ifodalangan.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the life, work, and literary activity of the famous Uzbek poet Zulfiya, highlighting her place and significance in Uzbek literature. Through her poetry, concepts such as humanitarianism, love, and loyalty are expressed in a clear and impactful way.

Аннотация: В этой статье глубоко анализируются жизнь, творчество и литературная деятельность знаменитой узбекской поэтессы Зульфийи, а также подробно рассматривается её место и значение в узбекской литературе. Через её поэзию ярко и воздействующе выражены такие высокие понятия, как гуманизм, любовь и преданность.

Kalit so'zlar: Zulfiya, Hamid Olimjon, she'r, she'riyat, adabiyot, muhabbat, sevgi, sadoqat, sog'inch.

Keywords: Zulfiya, Hamid Olimjon, poetry, poetry, literature, love, affection, loyalty, longing.

Ключевые слова: Зульфийа, Хамид Олимджон, стихотворение, поэзия, литература, любовь, привязанность, преданность, тоска.

Shoira she'rlarining keng ommaga tanilishi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat bilan boqib, uning boshqalar sezmaydigan nozik jihatlarini anglaydigan, o'ziga xos idrokiga ega qizaloq sifatida ajralib turardi. Bundan tashqari, oilasidagi iliq va badiiy muhit yosh Zulfiyada ijodiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirgan.

Zulfiya Isroilova – taniqli va iqtidorli o'zbek shoirasi. Yorqin rassom, oddiy inson qalbini o'tkir his qilgan – mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavar kurashgan ayol. Zulfiya she'riyatining nufuzi – bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridir. O'zbek xalqining atoqli va ardoqli vakili, taniqli jamoat arbobi, xalqaro tinchlik uchun



kurash jarchisi Zulfiya Isroilova xalqaro “Nilufar”, Javoharlal Neru nomidagi hamda Davlat mukofatlari sohibasidir. Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Avval boshlang'ich maktabda, so'ng xotin – qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-1938-yillarda O'zbekiston fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. 1935-yildan 1980-yilgacha, qariyb o'ttiz tilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan “Saodat” nomli xotin – qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lgan. Zulfiyaxonim Isroilova Hamid Olimjon bilan turmush qurgan. Biroq ular orzularga to'la hayot kechirayotgan pallada 1944-yili mashina halokati tufayli turmush o'rtog'idan ayrildi. Shoira esa 1996-yilda 81-yoshida vafot etadi. Shoira badiiy ijodga juda erta kirishdi. O'n yetti yoshida “Hayot varaqalari” deb atalmish dastlabki she'riy kitobini chop ettirdi. Uzoq ijodiy umri davomida o'ttizga yaqin she'riy to'plamlar, o'ndan ortiq dostonlar yaratdi. Shoira hammani o'ylatadigan, barcha kishilarga Jaxldor bo'lgan holatlarni she'rga soladi. Shuning uchun ham yozganlari ko'pchilikka manzur bo'ladi. Zulfiyaning ulkan iste'dodi faqat yurtimizdagina emas balki dunyo miqyosida ham e'tirof etilgan. U – xalqaro “Nilufar” mukofoti egasi.

– Onamning qanchadan-qancha qo'shiq va afsonalarni bilishiga aqlimiz bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va dostonlar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etar edi. Hozirgidek charog'on davrda yashasa, onam yo shoira, yo olima bo'lardi. Shunga aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbimda maktab ko'rmagan ana shu onam uyg'otgandi, – deb yozadi Zulfiya o'zining tarjimai holida.

Zulfiya Isroilova she'riyatida ko'plab zafarlar qozonishida onasining ham hissasi bor. Yuqoridagi satrda ham bunga yorqin namoyon bo'ladi.

Shoiraning “Ne baloga etding muftalo” she'rida Hamid Olimjon nomi to'g'ridan-to'g'ri tilga olinmaydi. Ammo shoiraning hayot yo'li bilan birmuncha tanish bo'lgan har bir o'qirman she'rning u haqda ekanligini tuyishi tayin. She'rdagi alamli murojaat, javobsiz savollar kimga atalganini aniqlashga urinish shunga olib keladi. She'r 1945 yilda yozilgan. Fojia ro'y berganiga yil o'tgan, lekin uning alamlari eskirgan emas. “O'tdi oylar g'am bilan oqib, Dil topmadi zarra tasallo” misralarida shoiraning insoniy dardi ko'lami tasvir etiladi. Oylarning g'am bilan oqishi tasviri tuyg'uning miqyosi va shiddatini o'qirman tasavvurida gavdalantirishga xizmat qiladi. Ayriliq tufayli paydo bo'lgan g'am daryoday oqmoqda. Hijron oylar ana shu g'am o'zanida oqib bormoqda. Vaqt



tinimsiz o'tib borayotir. U har qanday dardni unuttirishi kerak. Lekin vaqtning o'tishidan shoira dili zarra qadar tasalli topa olmayapti. Haqiqiy va ulkan yo'qotish oldida vaqt ham ojiz

Xulosa qilib aytganda, Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida nafaqat o'ziga xos shoira, balki inson sifatida ham o'z xalqining barcha oliyjanob fazilatlarini o'zida mujassam etgan bir ayol bo'lgan. Uning hayoti va ijodi xotin-qizlar uchun nafaqat ibrat, balki har birimizga chinakam muhabbat, sadoqat, mehnatsevarlik va izlanish orqali har qanday qiyinchilikni yengib o'tish mumkinligini ko'rsatadi. Zulfiyaxonimning yutuqlari va erishgan marralari, uning barcha ayollarga o'z orzulariga yetishish yo'lida ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultonova M., Ijod sahifalari, Toshkent, 1975; Zulfiya [bibliografiya], Toshkent,
2. 1977; Sultonova M., Zulfiya, Toshkent, 1985; Ibrohimov M., Quyoshli she'riyat
3. ijodkori, Toshkent, 1986; Ehtirom [nashrga tayyorlovchilar: Rahima Shomansurova,
4. Ra'no Rahmonova], Toshkent, 1995.
5. Qayumov L. Shoira Zulfiya. Toshkent, O'zadabiynashr, 1965.

